Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Ro'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilox Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	



Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1298
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi	1310
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
Davronov Saxobiddin Faxriddinovich	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulkakovich	



KORXONALAR FAOLIYATINI IFODALOVCHI UMUMIY KO'RSATKICHLAR ASOSIDA REYTINGNI ANIQLASH

Maxkamboyev Komil Abdulxakovich

PhD, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasini o'qituvchisi



Annotatsiya: Maqolada korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash masalalari o'rganilgan. Jumladan, umumiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining ahamiyati, ular bo'yicha reytingni aniqlash bo'yicha chora-tadbirlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, uni rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: reyting, mohiyatlilik koeffitsienti, iqtisodiy salohiyat, moliyaviy faoliyat, ko'rsatkichlar tizimi.

Abstract: The article discusses the issues of determining the rating based on general indicators reflecting the activities of enterprises. In particular, the significance of the system of indicators reflecting overall activity and the measures for determining the rating on them were scientifically analyzed. Scientific proposals and conclusions for its development are also given.

Key words: rating, essentiality coefficient, economic potential, financial activity, system of indicators.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы определения рейтинга на основе общих показателей, отражающих деятельность предприятий. В частности, научно проанализировано значение системы показателей, отражающих общую деятельность, меры определения рейтинга по ним. Также приведены научные предложения и выводы по ее развитию.

Ключевые слова: рейтинг, коэффициент существенности, экономический потенциал, финансовая активность, система показателей.

KIRISH

Mamlaktimizda bugungi kunda faoliyat olib borayotgan biznes subyektlarning o'ziga tegishli, mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish obyektiv zaruriyatga aylandi, chunki mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini mustahkamlash masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PF-5687-son Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida¹gi Farmoni, 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, xalqaro biznes subyektlari bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, tegishli idoralarda baholanayotgan yo'nalishlar bo'yicha tavsiyalar va boshqa rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tajribasini o'z ichiga olgan tegishli ma'lumotlar bazasini, undan foydalanuvchilarda esa xalqaro reyting metodologiyasini qo'llash bo'yicha dunyoqarashni shakllantirish muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Mazkur masalaning o'ta muhimligiga qaramasdan korxonalar moliyaviy faoliyati asosida reyting ko'rsatkichlarini tahlil qilish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmaganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, korxonalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va ular bo'yicha reytingini aniqlash masalasi amaliyotda deyarli qo'llanilmayotganligi bu borada bir qancha izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Biznes subyektlari moliyaviy holati bo'yicha reytingini aniqlash va ularning ayrim turlarini tahlil qilish mavzusiga xorijlik iqtisodchi olimlar A.D. Sheremet "korxonaning moliyaviy ahvolidning turli ko'rsatkichlar tizimida umumlashtirilgan ifodasidir"¹, deb ta'rif beradi. Yana bir rus iqtisodchi olimi G.V. Savitskaya "Moliyaviy holatning

1 Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. М.: НИЦ Инфра-М, 2013. – 229 с



umumlashtirilgan ifodasidir² degan fikrni ilgari surgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Raximov M. Yu. "... ko'rsatkichlar tizimini moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aniq belgilar asosida baholanishidir"³, deb tariflagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o'tkazishda ma'lumotlarni guruhlariga ajratish hamda iqtisodiy matematik usullar tarkibidagi additiv usulidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarining umumiy reytingini aniqlash uchun ushbu subyektning butun faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ushbu reyting ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish hajmi;
- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi;
- asosiy vositalar samaradorligi;
- aylanma mablag'lar samaradorligi;
- nomoddiy aktivlar samaradorligi;
- investitsiya samaradorligi.

Ushbu guruh ko'rsatkichlarining aniq ifodasi quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Korxonalarining umumiy faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi⁴

T/r	Faoliyatning turli bo'limlari	Shu faoliyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi
1.	Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish hajmi	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
		Sotilgan mahsulot hajmi
		Sotilgan mahsulotning tarkibiy tuzilishi
		Sotilgan mahsulotning sifatlilik darajasi
2.	Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar	Daromadlar
		Xarajatlar
		Foyda
		Rentabellik
3.	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi	Moddiy xarajatlar
		Mehnat xarajatlari
		Boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar
4.	Asosiy vositalar samaradorligi	Asosiy vositalar natijaviyligi
		Asosiy vositalar daromadliligi
		Asosiy vositalar rentabelligi
		Asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi
5.	Aylanma mablag'lar samaradorligi	Aylanma mablag'lar natijaviyligi
		Aylanma mablag'lar daromadliligi
		Aylanma mablag'lar rentabelligi
		Aylanma mablag'larning aylanuvchanlik tezligi
		Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi
6.	Nomoddiy aktivlar natijaviyligi	Nomoddiy aktivlar samaradorligi
		Nomoddiy aktivlar daromadliligi
		Nomoddiy aktivlar rentabelligi
		Nomoddiy aktivlar bilan ta'minlanganligi
7.	Investitsiya samaradorligi	Ichki investitsiya samaradorligi
		Tashqi investitsiya samaradorligi
		Umumiy investitsiya samaradorligi

2 Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М, 2013. – 384 с

3 Rahimov M. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holati tahlili. – T.: Iqtisod-moliya. 2015, 356 б.

4 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Yuqoridagi jadval korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlarning ayrimlarigina keltirilgan. Lekin shularning o'zinigina qo'llab ham korxonalar reytingini yetarli darajada aniqlab olishimiz mumkin. Bunda ko'rsatkichlarni bir xil o'lchamga va bir xil yo'nalishga keltirib olish maqsadga muvofiq. Shundagina ularni iqtisodiy-matematik usullarni qo'llab barcha ko'rsatkichlar miqdorini qo'shib aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Krk = \sum_{i=0}^n Xi ;$$

Bunda: Krk – korxonalar reytingi bo'yicha kompleks ko'rsatkich;
 Xi – i -ko'rsatkichning miqdori (qiymati);
 i – ko'rsatkichlar soni ($i=1,n$);
 n – korxonalar reytingiga kiritilgan ko'rsatkichlarning umumiy soni.

Reytingni haqqoniy bo'lishi va real voqeiylikni ifodalashi uchun ko'rsatkichlarning mohiyatlilik darajasini inobatga olish lozim. Chunki, korxonaning faoliyati natijasiga mehnat resurslari nomoddiy aktivlarga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. Shu tufayli har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentini inobatga olishni taqozo etadi.

Ko'rsatkichlarning mohiyatlilik koeffitsiyenti ekspert yo'li bilan aniqlanadi. Bunda har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentini ekspertlar qo'yib chiqadi. Bunda eng yaxshi ko'rsatkich "1" ga va eng past ko'rsatkich 0,1 ga teng deb olinadi, qolganlari shunga nisbatan olinadi. Demak, mohiyatlilik koeffitsiyenti barcha ko'rsatkichlarni "0,1" dan "1" gacha oraliqda bo'ladi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha ekspertlarning baholari jamlanib, ularning soniga bo'linadi va ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyenti (Km) aniqlanadi:

$$Km = \frac{\sum_{i=0}^n Xi}{n}$$

So'ngra har bir ko'rsatkichni mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko'paytirib, keyin hammasi jamlandi. Ammo yanada aniqroq bo'lishi uchun ushbu kompleks ko'rsatkichning o'rtachasi hisoblanadi. Bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Krk = 1/2 \sum_{i=0}^n Xi * Km$$

Masalan, korxonaning reytingini aniqlash uchun 6 ta ko'rsatkich olindi, deb faraz qilamiz. Ulardan biri "Korxonada mehnat samaradorligi" ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning mohiyatliligini baholash uchun 100 ta ekspertga so'rovnomalar tarqatildi. Ular ushbu ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentiga baho beradi. Ularning yig'indisi 37 ni tashkil qildi. Ushbu raqamning o'rtachasi 0,37 ga ($37/100$) teng bo'ladi. Korxonada mehnat samaradorligi ko'rsatkichining miqdori shu reyting koeffitsiyentiga ko'paytiriladi va bular jamlanadi.

Mazkur kompleks ko'rsatkich orqali har bir korxonaning reytingi qandayligiga baho berish mumkin. Ushbu holat har bir korxonaning samaradorlik darajasi qandayligiga va uning umumiy ahvoriga aniq baho berish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ko'rsatkich uning reytingini tashkil qiladi. Reytingi yuqori korxonalar, o'rtacha darajadagi korxonalar va past samaradorlikka erishgan korxonalar aniqlanadi. Ushbu holat aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun iqtisodiy asos bo'lib hisoblanadi. Samaradorligi past korxonalarning ahvolini chuqur o'rganish natijasida ularning ahvolini yaxshilash yo'llari ham ishlab chiqiladi. Ushbu holat korxonalar reyting ko'rsatkichining katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat berib turibdi.

Ko'rinib turibdiki, korxonalar reytingini har bir yo'nalish bo'yicha ham aniqlash mumkin. Korxonalar iqtisodiy salohiyati bo'yicha reytingini aniqlash uchun eng avvalo, ushbu kategoriyani ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi alohida tarmoqlar va yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Buni har bir biznes subyektini bo'yicha ham hisoblash mumkin. Endigi muhim vazifa shu ma'lumotlar asosida korxonaning iqtisodiy salohiyatiga baho berishdan iboratdir.

Buning uchun har bir korxonaning umumiy o'rtachaga nisbatan qanday ahvolda ekanligiga baho beriladi va shu yo'l bilan korxonalar iqtisodiy salohiyati bo'yicha har birining reytingi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsifiya qilinadi:



$$Icr = \sum_{i=1}^n \left(\frac{a_{ij}}{aurij} \right) * Kmij + \dots + \sum_{i=1}^n \left(\frac{anj}{aurnj} \right) * Kmnj$$

Bunda: Icr – iqtisodiy salohiyat bo'yicha bitta korxonaning reytingi;

a_{ij} – i-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha miqdori;

$aurij$ – i-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha miqdori;

$Kmij$ – i-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha mohiyatlilik koeffitsiyenti;

anj – n-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha miqdori;

$aurnj$ – n-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha miqdori;

$Kmnj$ – n-korxonaning j-ko'rsatkichi bo'yicha mohiyatlilik koeffitsiyenti;

Σ - jamlash (qo'shish) belgisi, additiv modelida qo'llaniladi.

i – i-korxonalar tartib soni;

n – korxonalar umumiy soni;

j – j-ko'rsatkichning tartib raqami.

Korxonalar iqtisodiy salohiyat bo'yicha reytingini aniqlash uchun uning tarkibiy tuzilishini aniqlash lozim bo'ladi. Hozirgi paytda ushbu masala bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida misolida bir qancha tavsiyalar mavjud⁵.

Biznes subyektlari iqtisodiy salohiyati tarkibidagi umumiy yondoshuvga tayangan holda quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalar qiymati;
- aylanma mablag'lar qiymati;
- nomoddiy aktivlar qiymati;
- mehnat resurslarining shartli qiymati⁶.

Bularni qiyoslanadigan holatda xarajatlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, avtomobil transporti korxonalar iqtisodiy salohiyatiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalar amortizatsiyasi;
- aylanma mablag'larning ishlab chiqarishga (xizmat ko'rsatishga) sarf qilingan qiymati;
- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- mehnat resurslaridan foydalanganlik uchun qilingan xarajatlar (ish haqi)⁷.

Ushbu takliflarni qo'llashda sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni nafaqat qiymat jihatidan, balki natural holatini ham inobatga olishimiz lozim. Chunki ikkita asosiy vosita bir xil qiymatga ega bo'lishi mumkin. Ammo quvvati bo'yicha farqlari bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Shu tufayli sohada asosiy vositalarning qiymati bilan birga ularning natural o'lchovdagi, uning salohiyatiga mos o'rinlari, soni va boshqa ko'rsatkichlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Biznes subyektlar iqtisodiy salohiyati bo'yicha reytingini aniqlashda sohaga oid natural va qiymat ko'rsatkichlarini bir xil o'lchamga keltirib olish lozim bo'ladi. Bunda iqtisodiy salohiyatning kompleks ko'rsatkichini aniqlash orqali ushbu subyektlarning reytingiga baho berish mumkin.

Yana bir muammo korxonalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish uchun ularning ko'rsatkichlarini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Bu borada ham yagona ilmiy qarashlar shakllangan emas. Hammasini jamlagan holda, tadqiqot jarayonida bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha reytingi aniqlash usuli ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari va 1-formula asosida har bir ko'rsatkichning reytingini aniqlash uchun uning miqdori aniqlab olinadi. Bunda har bir ko'rsatkichning o'rtachaga nisbatan nisbiy miqdori hisoblanib, ushbu ko'rsatkich mazkur ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsiyentiga ko'paytiriladi. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha xuddi shunday hisob-kitob qilinadi va hammasi jamlanadi. Shu tariqa har bir korxonaning umumiy reytingi aniqlanadi.

5 Pardayev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: "Mehat" nashriyoti, 2004. – 104-138 betlar., Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Professor M.Q.Pardayevning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2016. – 226-231 betlar., Pardayev M.Q., Hasanov B.A., Isroilov J.I., Pulatov M.E., Eshboyev O'.T., Xoliqulov A.N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2012.- 400 bet.

6 Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. Professor M.Q.Pardayevning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2016. – 226-231 betlar.

7 Pardayev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: "Mehat" nashriyoti, 2004. – 104-138-betlar.



Xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlarda alohida ko'rsatkichlarning mohiyatlilik koefitsiyentini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazib, mutaxassislardan o'zlarining munosabatlarini olish maqsadga muvofiqdir.

Bunda har bir ko'rsatkichga 0,1 dan 1,0 ballgacha baho beriladi. Barcha sotsiologik so'rov natijalari qo'shilib baho berganlar soniga bo'linadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

$$Km = \frac{\sum_{i=1}^n Mi}{n}$$

Shu tariqa har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koefitsiyenti aniqlanadi. Bunda asosiy vositaning soni bo'yicha, o'rtacha quvvati bo'yicha, asosiy vosita bilan bevosita faoliyat olib borayotgan ishchilar soni bo'yicha reytingi aniqlab olinadi. Ushbu mohiyatlilik koefitsiyentini har bir ko'rsatkichga ko'paytirish natijasida qiyoslanadigan ko'rsatkichni aniqlash mumkin. Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida tahlil qilinayotgan korxonalarining quvvati bo'yicha reytingi aniqlab olinadi.

Umumiy reytingi aniqlashda ularning o'rtacha miqdori va subyektning sohadagi darajasi kelib chiqadi. Hisob-kitoblar asosida va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llab, tegishli dasturlar asosida amalga oshirilsa, minglab korxonalar reytingini aniqlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib tadqiqot natijasida bir qancha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

*Birinchi*dan, biznes subyektlarida iqtisodiy salohiyat tarkibining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Bunda iqtisodiy salohiyatni nafaqat qiymat, balki natural ko'rinishda ham aniqlash lozimligi asoslandi. Korxonalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga qo'llash maqsadga muvofiq.

*Ikkinchi*dan, korxonalar iqtisodiy salohiyat bo'yicha reytingini aniqlash modeli ishlab chiqildi va uning amaliyotda qo'llanilishi ko'rsatildi, tahlil natijasida tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo'llari ko'rsatib berildi.

*Uchinchi*dan, korxonalar bo'yicha har birining reytingini aniqlash va shu asosda ularning o'rnini belgilash yo'llari ham ko'rsatib berildi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan biznes subyektlar iqtisodiy salohiyati tushunchasining nazariy masalalari va ularning tarkibiy tuzilishiga aniqlik kiritish, xususan, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar, joriy aktivlar, mehnat resurslari kabi kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning qaysi o'lchamda qabul qilish va ularni tizimlashtirish yo'llari yoritish soha samaradorligini baholashda o'ta muhim masalalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalar iqtisodiy salohiyati samaradorligini tahlil qilish va reytingini baholashning nazariy masalalarini tadqiq qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, mamlakatimiz iqtisodiyotida mazkur masala salmoqli o'ringa ega bo'lishiga qaramasdan, olimlarimiz tomonidan yetarli darajada o'rganilmagan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Bularni inobatga olib, korxonalar iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichlari bo'yicha reytingi va ularni aniqlashning nazariy masalalari, korxonalar iqtisodiy salohiyati tushunchasining mazmuni, ularning tarkibiy tuzilishi, ta'riflari va tahlil qilish vazifalari ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шеремет А.Д. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. М.: НИЦ Инфра- М. – 2013. – 229 с.
2. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – М.: Инфра-М. – 2013. – 384 с.
3. Raximov M. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatini tahlili T.: Iqtisod-moliya. – 2015, 356 b.
4. Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.